
BEKTEMIRNING GERMANIYADAGI G'ALABASI

Viloyatimiz sportchi yoshlarining jahon arenalarida ulkan yutuqlarni qo'lga kiritayotganligi mamlakatimiz dovrug'ini taratmoqda.

Germaniyaning Gamburg shahrida bo'lib o'tgan boks bo'yicha jahon chempionatida ham yurtimizning kuchli charm qo'lqop ustalari umumjamoa hisobida faxrli 2 o'ringa sazovor bo'lishdi. Terma jamoa safida viloyatimiz vakili, furqatlik Bektemir Meliqo'ziev ham muvaffaqiyatli qatnashib, bronza medali sohibi bo'lganligi quvonarlidir.

Ta'kidlash joizki, Germaniyada o'tkazilgan jahon chempionati boks ishqibozlariga unutilmas taassurotlarni tortiq etdi. O'zbekiston sportchilari o'z imkoniyatlari yuqori ekanligini amalda ko'rsatdilar. Bitta oltin, ikkita kumush va uchta bronza medallariga sazovor bo'lishdi. Bektemir Meliqo'zievning murosasiz o'tkazgan bellashuvlari nafaqat mamlakatimiz, balki xorijlik muxlislarning ham diqqat-e'tiboriga sazovor bo'ldi.

Viloyat hokimi, Oliy Majlis Senati a'zosi Shuhrat G'aniev sportchining yutug'i bilan yaqinlarini qutlash maqsadida xonadoniga tashrif buyurdi. Farg'ona farzandining muvaffaqiyati mustaqilligimizning 26 yilligiga munosib tuhfa bo'lganligini ta'kidladi. Ota-onasiga esdalik sovg'alari topshirildi.

O'g'lim sportda erishgan yutuqlari bilan Vatanimiz rivojiga hissa qo'shayotganligidan faxrlanaman, – deydi Navro'za Sulaymonova. – Uning chiqishlarini otasi ikkimiz hayajon bilan kuzatib boramiz. Doimo zafar qozonishini tilab, duo qilamiz. Mahallamizda kimdir Bektemirga o'xshashi yoxud shogird bo'lishi haqida so'z yuritsa, onalik mehrim yanada jo'shib ketadi. Farzandim kamolidan cheksiz shodlanaman.

2017-09-12 11:31:04